

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI*

*JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI  
FARG'ONA FILIALI*

*“JISMONIY TARBIYADA XORIJIY TAJRIBALAR”*

MODULI

**1-Amaliy mashg‘ulot**

**Jismoniy tarbiya va sport ta'limi  
sifatini oshirishning global ahamiyati**

O'qituvchi: Kuzibayev Rustamjon Abdulxayevich

# **REJA:**

---

**1. Sport ta’limi sifatini oshirishning global ahamiyati.**

---

**2. Sport ta’limi sifatini oshirishda xorijiy davlatlar tajribasi.**

# **Sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyati**

Sport inson hayotining barcha bosqichlarida sog'liq va faol hayot tarzini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab kelingan.

Albatta, jismoniy tarbiya turli sport maktablari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi klublar bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishda hayotning barcha jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Sport aynan sog'liqni saqlash hamda sport ta'limi natijalarini qo'lga kiritishda va insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.



Globallashuv sharoitida strategik muammolaridan biri bo‘lib, sport klublarida sportchilarni tayyorlash sifatini yaxshilashdagi muammolarni tubdan hal etishiga bog‘liqdir. Sport klublarida sportchilarni tayyorlashda, sifatini yaxshilash jarayoni sportchini yoshligidan shug‘ullantirib va chiniqtirishdan tortib, to jahon musobaqalariga chiqib yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritishda sifatli amaliy xizmatlarini ko‘rsatish ham zarur masalalardan biridir.



Dunyoning taraqqiy etgan ko‘pgina mamlakatlari rivojlanishga turtki bo‘layotgan omil asosan sport klublari o‘rtasidagi raqobatdir. Rivojlangan davlatlar xususan, AQSh, Yevropa davlatlari, Yaponiya, Janubiy Korea, Xitoy, Rossiya davlatlarida kuchli sportchilarning yetishib chiqayotganligi va raqobatning kuchliligi evaziga sport klublari o‘rtasida yuqori natijaga erishilmoqda. Biroq, sport biznesida muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.




# **Sport ta'limi sifatini oshirishda xorijiy davlatlar tajribasi.**


## **Yevropada ta'lim**

Yevropa diplomlari butun dunyoda katta hurmatga sazovor, olingan bilimlar sizga muvaffaqiyatli martaba va nufuzingizni oshirish uchun yaxshi turtki bo‘ladi.


Yevropada ta'lim turli sohalar va o‘quv muassasalariga yo‘naltirilgan, bu yerda pulli xizmat asosda, shuningdek bepul yoki davlat yoki xususiy universitetlarda o‘qish mumkin.

Yevropa mamlakatlaridagi ta'lim tizimi quyidagi o‘quv dasturlarini taqdim etadi: O‘rta ta'lim, bakalavriat, magistraturaga tayyorgarlik, magistratura, doktoranturaga qabul qilish uchun tayyorgarlik kurslari joriy qilingan.






Ayrim mamlakatlarda, masalan Germaniya va Buyuk Britaniyada bakalavr darajasiga kirish uchun 12 yillik ma'lumotga ega bo'lish kerak. Ukrainada 11 yillik maktab bo'lganligi sababli, bu Ukraina universitetida qo'shimcha 1 yil bo'lishi mumkin.



Gollandiyada yoki Avstriyada maktabdan keyin universitetda o'qish uchun sertifikat mavjud bo'lishi zarur.



Agar Yevropada magistr darajasiga ega bo'lishga qaror qilsangiz, unda bakalavr darajasiga ega bo'lish va kirish talablarini bajarish kerak. Shimoliy Amerikada olingan ta'lim har doim juda mashhur bo'lgan. AQSh va Kanada turli sohalarda juda ko'p o'quv dasturlarini taqdim etadi.

## Shimoliy Amerikada quyidagi dasturlar bo‘yicha o‘qish mumkin:

O‘rta ma’lumot

Ilmiy daraja

Bakalavr darajasi

Magistratura

Doktorantura

Sertifikatlashtirish dasturlari

Ilmiy daraja dasturlari.

Okeaniya, xususan Avstraliya va Yangi

Zelandiyada ta’lim sifati bo‘yicha Yevropa va

Shimoliy Amerikaning eng yaxshi universitetlari

bilan bir qatorda.


Ushbu mintaqaga Buyuk Britaniyaning ta’lim

tizimiga asoslangan ta’limga innovatsion

yondashuv bilan ajralib turadi va narxlar Buyuk

Britaniya va AQShning ba’zi universitetlariga

qaraganda past bo‘ladi.



**Osiyoda ta'lim** - Osiyoda xalqaro ta'limga talab tez o'sib bormoqda. Jarayon ta'limning mutlaqo boshqacha uslubi bilan izohlanadi u “turmush darajasi”, ta'lim bozorida katta sarmoyalar va Osiyo mintaqasi davlatlarining jadal iqtisodiy o'sishi bilan ta'lim markazi” deb nomланади.



Osiyoda o‘qishning asosiy afzalliklari orasida uning qiymati va sifatining kombinatsiyasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shunday qilib, Osiyo mamlakatlaridagi oliy o‘quv yurtlari va biznes maktablari Shimoliy Amerika darajasidagi o‘qish dasturlarini arzon narxlarda taklif etadilar.

Chet ellik talabalar mutlaqo yangi madaniyat bilan tanishadilar, kasbiy aloqalarni o‘rnatadilar, o‘quv jarayoniga kiritilgan amaliyotlarning bir qismi sifatida, Osiyoda ingliz tilida oliy ma’lumot olish imkoniyati ushbu mintaqaning jozibadorligini oshiradi.



## Ayni damda AQSH pedagogikasida

1. Bolani o‘z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash.
- 2.O‘quvchinig eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash.
3. Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g‘ururini yerga urmaslik.
- 4.O‘quvchini ilk davridanoq kasbga yo‘naltirish.
5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalashdan iborat.



# Yaponiya ta'limida

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash.
2. Kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
- 3.O‘quvchilarни nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan e’tibor;
4. O‘qituvchilik kasbini tanlaganlarga yuksak talablar qo‘yiladi;
5. Yosh iste’dodli o‘quvchilar bilan izchil keng qamrovli ishlar olib borish.



## Germaniya ta'limida

1. Tabaqallashtirib o‘qitishga kuchli e’tibor;
- 2.O‘quvchilarni mehnat ta’limini mustahkamlash.
3. Bolalar qiziqgan kasblarga yo‘naltirish.



## Fransiya ta'limida

1. Maktabgacha tarbiyadan boshlab o‘quv ishlarini fanlarga moslashtirib tashkil etish.
2. Boshlang‘ich ta’limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish.
3. O‘quv ishlarini didaktik vositalar bilan ta’minlashga, katta e’tibor.
4. O‘quv muassasalari turli hususiy korxonalar bilan mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bilan bizning ta’limga ham ko‘chib o’tmoqda.

Albatta ta’limga har qanday yangilik, o‘zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi.



*E'TIBORINGIZ  
UCHUN  
RAHMAT!*